


2019-yil yanvar-aprel oylarida xizmatlar sohasining rivojlanishi

Xizmatlar sohasining rivojlanganligi - jamiyatning muvaffaqiyatli rivojlanishining asosidir. Xizmatlar sohasining o'sish omili bo'lib, ijtimoiy ehtiyojlar tizimidagi yuz beradigan o'zgarishlar hisoblanadi. Texnika, texnologiya, ishlab chiqarish tuzilmalarining murakkablashishi, aholi turmush darajasining oshishi, shuningdek, insonning o'zini mukammallashtirishi, ya'ni ta'lim va madaniyat darajasini oshirishi hisobiga ishlab chiqarish va aholi ehtiyojlari izchil ravishda kengaytirilmoqda. Ushbu sabablarning umumiy ta'siri sanoat, qishloq xo'jaligi va xizmatlar sohalari o'rtasida resurslar va mahsulotlar taqsimotidagi nisbatning sezilarli darajada o'zgarishiga olib keldi.

2019-yil 1-may holatiga ko'ra respublikamizda 238,5 mingta xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar qayd etilib, ularning umumiy (358,8 ming birlik) sonidagi ulushi 66,5 % ni tashkil etdi. O'tgan yilga nisbatan ularning soni 18,9 % ga oshdi.

2019-yil 1-may holatiga korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotganlarning ulushi, % (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



2019-yil 1-may holatiga xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibida eng yuqori ulushni savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlar (36,3 %) tashkil etadi.

Yashash va ovqatlanish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi 9,5 % ni tashkil etdi.

2019-yil 1-may holatiga xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi, %

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida tashish va saqlash faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi 6,1 % ga yetdi.


Axborot faoliyati bilan shug'ullanuvchi va aloqa xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlar ulushi 3,0 % ga teng bo'ldi.

Sog'liqni saqlash sohasida faoliyat yuritayotgan va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlarning ulushi 3,0 % ni tashkil etdi.

Ma'lumot uchun: 2018-yil 1-may holatiga xizmatlar sohasida 200,7 mingta korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatgan. Ularning umumiy tarkibida savdo sohasida - 33,1 %, yashash va ovqatlanish sohasida - 9,0 %, tashish va saqlash - 6,2 %, axborot va aloqa - 3,2 %, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish - 3,1 %, boshqa turlarda - 45,4 % korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatgan.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning sonini taqqoslasak, 2019-yil 1 may holatiga ularning soni 37,8 mingtaga ko'paydi.

2018-yilning mos davriga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ko'payishi, ming birlik (2019-yil 1-may holatiga)




Eng yuqori o'sish savdo faoliyati bilan shug'ullanadigan korxonalar va tashkilotlarda qayd etilib, 30,4 % ni tashkil etdi. Ularning soni 20,2 mingtaga ko'paydi. 2019-yil yanvar-aprel oylarida ushbu sohada yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni 16,4 mingtaga yetdi, o'tgan yilga nisbatan bu ko'rsatkich 12,1 mingtaga oshdi.

Shu bilan birga, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni 25,4 % ga oshganligi qayd etilib, 4,6 mingtaga ko'paydi.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2019-yil yanvar-aprel oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 10390,5 mlrd. so'mga oshib, 54133,3 mlrd. so'mga yetdi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 112,3 % ni tashkil etdi.


2019-yil yanvar-aprel oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining tarkibi, %



Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida transport xizmatlari 29,8 % ulush bilan yetakchi o'rinni egallaydi. 2018-yil yanvar-aprel oylariga nisbatan ularning hajmi 2823,8 mlrd. so'mga oshdi.

Bundan tashqari, eng katta ulush savdo xizmatlari (25,3 %), moliyaviy xizmatlar (17,4 %), aloqa va axborotlashtirish (5,6 %), ta'lim sohasidagi xizmatlarda (3,7 %), shuningdek, ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarda (3,1 %) kuzatildi.

2018-yil yanvar-aprel oylariga nisbatan ayrim xizmat turlari hajmining oshishi, mlrd. so'm




2019-yil yanvar-aprel oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
Xizmatlar - jami	54133,3	112,3
shu jumladan:		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	3023,1	104,6
Moliyaviy xizmatlar	9389,4	154,8
Transport xizmatlari	16152,5	104,4
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	7024,6	100,8
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	1571,4	105,5
Savdo xizmatlari	13667,0	104,0
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	1657,0	104,2
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	2023,0	124,1
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	772,4	117,6
Ijara xizmatlari	1084,3	101,9
Kompyuter va ma'ishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	892,7	103,0
Shaxsiy xizmatlar	1324,9	104,3
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	905,0	127,4
Boshqa xizmatlar	1670,6	103,8

Respublikamizda kredit siyosati bo'yicha olib borilayotgan islohotlarning davom ettirilishi moliyaviy xizmatlarning o'sishiga imkoniyat yaratdi. 2019-yil yanvar-aprel oylarida moliyaviy xizmatlarning o'sish sur'ati 154,8 % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, eng yuqori o'sish sur'atlari me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (127,4 %), ta'lim sohasidagi xizmatlar (124,1 %), sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlarda (117,6 %) qayd etildi.

2019-yil yanvar-aprel oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari, %




Ma'lumot uchun: 2018-yil yanvar-aprel oylarida moliyaviy xizmatlarning o'sishi 28,9 % ni, ta'lim sohasida – 7,6 % ni, sog'liqni saqlash sohasida - 11,8 % ni tashkil etgan.

Respublikamizning iqtisodiy rivojlanishida transport muhim rol o'ynaydi. Transport xizmatlari umumiy hajmining qariyb yarmi avtomobil transportida yuklar va yo'lovchilarni tashish xizmatlari hisobiga to'g'ri keladi.

Avtomobil transporti boshqa transport turlari bilan taqqoslanganda uning moslashuvchanligi va ko'rsatilayotgan xizmatlarning nisbatan arzonligi sababli eng ko'p talabga ega hisoblanadi. Transport xizmatlari umumiy hajmida avtomobil transportining ulushi 43,5 % ni tashkil etadi.

2019-yil yanvar-aprel oylarida transport turlari bo'yicha transport xizmatlari tarkibi, %




2019-yil yanvar-aprel oylarida quvur yo'li orqali ko'rsatilgan transport xizmatlarining ulushi 23,8 % ni tashkil etdi.

Transport xizmatlari umumiy hajmida temir yo'l transporti orqali ko'rsatilgan xizmatlar 14,9 % ni egallaydi. Havo transporti orqali ko'rsatilgan yuk va yo'lovchilarni tashish bo'yicha xizmatlar ulushi transport xizmatlari umumiy hajmida 9,9 % ni tashkil etdi.

Yordamchi transport faoliyatining transport xizmatlari umumiy hajmidagi ulushi 7,9 % ga yetdi.

Ma'lumot uchun: Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, Logistika samaradorligi indeksi (LPI) bo'yicha 167 dunyo mamlakatlari orasida O'zbekiston 117-o'rinni egalladi.

Logistika samaradorligi indeksining (LPI) taqqoslanishi




Ushbu reytingda O'zbekistonning infratuzilmasini rivojlantirish darajasi 2,44 tani tashkil etdi, bu esa bizning mamlakatimizga 98-o'rinni egallash imkonini berdi. O'z vaqtida etkazib berish muddatiga rioya etish darajasi 3,01 (101-o'rin), shuningdek, logistika sifati va omilkorligi 2,49 (109-o'rin) deb baholandi.

[\(https://lpi.worldbank.org/\)](https://lpi.worldbank.org/)

Har bir mamlakatning iqtisodiy hayotida muhim o'rin tutuvchi savdo sohasi ishlab chiqarish va iste'mol o'rtasidagi aloqani ta'minlaydi, shuningdek, tovarlarni ishlab chiqarish hajmi va tarkibiga, ularning turlarini yaxshilanishiga va sifatini oshishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

2019-yil yanvar-aprel oylarida savdo xizmatlari hajmi 13667,0 mlrd. so'mga teng bo'ldi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmidagi ulushi 25,3 % ni tashkil etdi.

2019-yil yanvar-aprel oylarida savdo xizmatlarining tarkibi, %




Savdo xizmatlari tarkibida avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar katta salmoqqa ega bo'lib, 2019-yil yanvar-aprel oylarida uning ulushi 67,4 % ni tashkil etdi.

Ulgurji savdo xizmatlarining ulushi (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) 25,5 % ga yetdi.

Avtomobillar va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi, jumladan, avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda savdo xizmatlarining umumiy xizmatlar hajmidagi ulushi 7,1 % ni tashkil etdi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan savdo xizmatlarining hajmi 1976,9 mlrd. so'mga oshdi.

2019-yil yanvar-aprel oylarida hududlar kesimida savdo xizmatlari hajmining taqqoslanishi, mlrd. so'm




Savdo xizmatlarining eng katta hajmi Toshkent shahri (4435,2 mlrd. so'm), Toshkent (1239,3 mlrd. so'm), Samarqand (1051,2 mlrd. so'm) Farg'ona (1039,3 mlrd. so'm), va Andijon (940,7 mlrd. so'm) viloyatlarida qayd etildi.

Savdo xizmatlari bo'yicha eng past ko'rsatkichlar Sirdaryo viloyatida kuzatildi. Ushbu hududdagi savdo xizmatlari hajmi 221,6 mlrd. so'mga teng bo'ldi.

Bugungi kunda etakchi o'rinlarni nafaqat savdo va transport kabi doimiy yangilanib borayotgan an'anaviy faoliyat turlari, balki tez o'sib borayotgan bilimga asoslangan biznes va ijtimoiy-madaniy xizmatlar ham egallaydi.

2019-yil yanvar-aprel oylarida hududlar kesimida moliyaviy xizmatlarning hajmi va o'sish sur'atlari



2019-yil yanvar-aprel oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi 9389,4 mlrd. so'mga teng bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 154,8 % ni tashkil etdi.

2018-yil yanvar-aprel oylariga nisbatan moliyaviy xizmatlarning o'sishi Sirdaryo (99,4 %), Jizzax (93,2 %), Namangan (80,9 %), Navoiy (74,4 %), Buxoro (73,9 %) viloyatlarida va Qoraqalpog'iston Respublikasida (81,3 %) kuzatilmoqda.

Boshqa hududlarga nisbatan pastroq o'sish sur'atlari Toshkent shahrida (145,5 %), Qashqadaryo va Toshkent viloyatida (148,6 %) kuzatildi.


Ma'lumot uchun: *Fitch Ratings xalqaro reyting agentligi O'zbekistonning uzoq muddatli kredit reytingini chet el va milliy valyutada "BB-" darajasida tasdiqladi. Reytingning prognozi barqaror.*

Fitch Ratings tahlilchilarining fikriga ko'ra, O'zbekistonning reytinglarida bir tomondan yaxshi suveren muvozanat, past davlat qarzlari va solishtirma reytingga ega bo'lgan mamlakatlar bilan taqqoslaganda yuqori o'sish tarixi, boshqa tomondan esa xom ashyo sektoriga sezilarli darajada qaramligi, yuqori inflyatsiya va aholi jon boshiga to'g'ri keladigan YaIMning past darajadagi tarkibiy kamchiliklari va solishtirma reytingga ega emitentlarga nisbatan institutsional muhit va boshqaruv sifatining zaif darajalari aks ettirilgan.

<https://www.fitchratings.com/>

Moliyaviy xizmatlarning o'sish omillari sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar hajmining o'sishi, jumladan, pul-kredit sohasidagi vositachilik bo'yicha xizmatlar hajmining o'sishi bilan izohlanadi. Ularning moliyaviy xizmatlar umumiy hajmidagi ulushi 91,1 % ni tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlar - 100,0 %



Zamonaviy bank xizmatlarini taqdim etish uchun shart-sharoitlar yaratish maqsadida innovatsion bank texnologiyalarini joriy etish, jumladan, "raqamli" banklar va ularning chakana xizmatlarni ko'rsatish, masofaviy bank xizmatlarini takomillashtirish va to'lov tizimini yanada rivojlantirishga ixtisoslashgan bo'limlarini faoliyatini tashkil etish moliyaviy xizmatlar jadal rivojlanishiga yordam beradi.

Ma'lumot uchun: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Milliy to'lov tizimini rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida" gi 2018-yil 19-sentabrdagi PQ-3945-sonli qaroriga binoan Milliy banklararo protsessing markazini tashkil etish to'g'risida qaror qabul qilindi.

Xumo" deb nomlangan yangi tizim tijorat banklarining o'zlari to'lovlarni tashkil qilishda ishtirok etishini o'z ichiga oladi. Unda tijorat banklari mijozlarga xolislik dasturlari, bonuslar, overdraft-kreditlari va boshqa zamonaviy mahsulotlarni taklif qilgan holda ular bilan yanada faolroq ishlaydi. Shunday qilib, banklar o'rtasida raqobat kuchayadi.

Yangi bank kartalari ikki rejimda ishlaydi: kontaktli (kartani terminalga kiritib, kodni terish) va kontaktsiz (kartani aktivlashtirish uchun uni terminalga yaqinlashtirish kifoya). Shu bilan birga, barcha mijoz ma'lumotlarining xavfsizligi va PIN-kod so'ramasdan tranzaksiyalarni amalga oshirish imkoniyati ta'minlanadi.


[\(http://infocom.uz/\)](http://infocom.uz/)

Zamonaviy biznesni amalga oshirish uchun zarur shart-sharoit hozirgi zamon infratuzilmasidan foydalanish hisoblanadi. Yirik bozorlar, Internet-savdo, xom-ashyo, komponentlar va texnologiyalarni izlash, reklama va marketing faoliyati, jarayon va texnologiyalar tizimini boshqarish, shuningdek raqamli tizimlarga xizmat ko'rsatish bo'yicha ixtisoslashtirilgan ma'lumotlar bazalari zamonaviy tashkilotning majburiy xususiyati hisoblanadi.

2019-yil yanvar-aprel oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining hajmi 3023,1 mlrd. so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan ushbu turdagi xizmatlarning o'sishi 4,6 % ni tashkil etdi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmidagi ulushi 5,6 % ni tashkil etdi.


2019-yil yanvar-aprel oylarida hududlar kesimida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining hajmi va ulushi



Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet tarmog'i, yo'ldoshi aloqa xizmatlari va boshqalar) katta qismni egallab, uning ulushi 82,8 % ni tashkil etadi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari umumiy hajmida nashriyot xizmatlari 5,6 %, kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish xizmatlari va boshqa yordamchi xizmatlar - 5,1 %, dasturlar tuzish va teleradioeshittirishlar bo'yicha xizmatlar - 3,0 %, axborot sohasidagi xizmatlar - 2,9 % ni tashkil etadi.

2019-yil yanvar-aprel oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi, %



Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari umumiy tarkibida eng kam ulushni televidenie dasturlari ishlab chiqarish, ovoz yozish va musiqa asarlarini nashr qilish bo'yicha xizmatlar tashkil etadi. Joriy davrda ularning hajmi aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining umumiy hajmida 0,6 % ni tashkil etdi.


Ta'lim tizimining rivojlanishi - O'zbekistondagi eng muhim ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi.

Ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan tub islohotlar inson ongi va fikrlashidagi ijobiy o'zgarishlarni qo'llab-quvvatlaydi va uning ma'naviyatini yuksalishiga imkoniyat yaratadi.

2019-yil yanvar-aprel oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi 2023,0 mlrd. so'mga yetib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish 24,1 % ni tashkil etdi.

Hududlar orasida Toshkent shahri etakchi o'rinni egallaydi. Ta'lim sohasidagi xizmatlarda uning ulushi 41,9 % ni tashkil etdi.

2019-yil yanvar-aprel oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlarning umumiy hajmida hududlarning ulushi, %




Buning sababi, ta'lim muassasalarining katta qismi bu erda joylashganligidir. Toshkent shahrida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi 848,2 mlrd. so'mga yetdi.

Ta'lim sohasidagi xizmatlarning yuqori o'sish sur'ati Xorazm viloyatida - 160,8 % ni tashkil etdi.

Bundan tashqari, ta'lim sohasidagi xizmatlarning eng yuqori o'sish sur'atlari Buxoro (146,9 %), Jizzax (134,9 %) Sirdaryo (128,6 %), Qashqadaryo (126,4 %) viloyatlarida va Qoraqalpog'iston Respublikasida (137,2 %) qayd etildi.

2019-yil yanvar-aprel oylarida hududlar kesimida ta'lim sohasidagi xizmatlarning o'sish sur'atlarini taqqoslanishi, %



2019-yil yanvar-aprel oylarida eng past o'sish sur'ati Surxondaryo viloyatida – 98,0 % qayd etildi.

Bugungi kunda o'quv jarayonining sifati va samaradorligini oshirishning muhim omili sifatida maktablarni zamonaviy laboratoriya uskunalari, kompyuter texnikasi, darsliklar va yangi avlod metodik materiallari bilan ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Ma'lumot uchun: bugungi kunda "Kundalik.uz" elektron tizimi faoliyat ko'rsatmoqda. Tizim onlayn tarzda o'qituvchilarni darslarini rejalashtirish, dars jadvallarini tuzish, o'quvchilarning o'zlashtirish darajasi va davomatini elektron jurnal va kundaliklarda qayd etib borish, shuningdek, ta'lim boshqaruv organlari va muassasalarga statistik hisobotlarni shakllantirish uchun xizmat qiladi. Bundan tashqari, tizim ta'lim muassasalari va ta'lim muassasalarini boshqaruv organlariga statistik hisobotlarni shakllantirish vositasidir.


Shu bilan birga, o'quv jarayonini boshqarishning axborot tizimi (EMIS) joriy etildi va maktablar, o'qituvchilar va xodimlar, shuningdek o'quvchilar va ota-onalarning yagona ma'lumotlar bazasi yaratildi. Bundan tashqari, o'quvchilarni qabul qilish, bir maktabdan boshqasiga ko'chirish va boshqa elektron xizmatlar ko'rsatish uchun elektron tizim ishlab chiqildi.

Bundan tashqari, o'quvchilarni identifikatsiyalash (NFS, ID-karta) zamonaviy tizimlarini joriy etish va ularni boshqa tizimlar (sogliqni saqlash, huquq-tartibot va hokazo.) bilan integratsiya qilish tizimini joriy etish rejalashtirilgan. Ushbu tizim, zarur hollarda, o'quvchiga qiyinchiliksiz ota-onani yoki tegishli xizmat vakillarini yordamga chaqirish imkonini beradi.

[\(https://kundalik.com/\)](https://kundalik.com/)

2018-yil yanvar-aprel oylariga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning o'sish sur'ati 5,5 % ga o'sdi, hajmi esa 258,4 mlrd. so'mga oshdi va 1571,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.

2019-yil yanvar-aprel oylarida hududlar kesimida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmining taqqoslanishi, mlrd. so'm




Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning eng yuqori hajmi Toshkent sh. 680,1 mlrd. so'mni tashkil etdi, 2018-yil yanvar-aprel oylariga nisbatan 108,4 mlrd. so'mga oshishi kuzatildi.

Eng kichik hajm esa Sirdaryo viloyatida – 17,7 mlrd. so'm qayd etildi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi 81,7 % bilan ustunlik qiladi. Yashash bo'yicha xizmatlar ulushi 18,3 % ni tashkil etdi.

2019-yil yanvar-aprel oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning tarkibi, %



- Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar
- Yashash bo'yicha xizmatlar

2017-2021 yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasiga muvofiq ijtimoiy himoya qilish va fuqarolar sog'lig'ini saqlash tizimini takomillashtirish O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlaridan biridir.

Respublikada sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish chora-tadbirlarini amalga oshirish doirasida aholiga tibbiy yordam ko'rsatishning zamonaviy tizimini shakllantirishda muayyan natijalarga erishishga muvaffaq bo'lindi.

2019-yil yanvar-aprel oylarida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi 772,4 mlrd. so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 117,6 % ni tashkil etdi.

Sirdaryo viloyatida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlarning umumiy xizmatlar hajmidagi ulushi eng kichik (1,4 %) bo'lishiga qaramasdan, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 21,1 % ni tashkil etdi.

2019-yil yanvar-aprel oylarida hududlar kesimida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlarning o'sish sur'atlari, %



Shu bilan birga, yuqori o'sish sur'atlari Toshkent (126,8 %), Qashqadaryo (126,6 %), Jizzax (117,1 %), Andijon (116,1 %) viloyatlarida va Toshkent shahrida (126,1 %) qayd etildi.


2019-yil yanvar-aprel oylarida hududlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar hajmi

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
O'zbekiston Respublikasi	54133,3	112,3
Qoraqalpog'iston Respublikasi	1652,9	118,3
viloyatlar:		
Andijon	2819,0	111,1
Buxoro	2289,1	112,4
Jizzax	1161,7	120,0
Qashqadaryo	2418,3	108,9
Navoiy	1373,1	112,1
Namangan	2146,2	112,9
Samarqand	3517,8	109,9
Surxondaryo	1994,9	111,8
Sirdaryo	712,4	120,2
Toshkent	3869,5	109,1
Farg'ona	3240,8	110,8
Xorazm	1592,8	113,8
Toshkent sh.	17697,1	115,2

Hududning ijtimoiy-iqtisodiy holati ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanish darajasini aks ettiradi, ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot hajmini (YaHM) xarakterlaydi va hududning byudjet imkoniyatlari va pul oqimlarining hajmini belgilaydi, shu jumladan, xizmatlar sohasining rivojlanishini aks ettiradi.

2019-yil yanvar-aprel oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining eng katta hajmi Toshkent shahrida (17697,1 mlrd. so'm) qayd etildi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan shahar bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati 115,2 % ni tashkil etdi.

2019-yil yanvar-aprel oylarida hududlar bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari, %




Shu bilan birga, eng yuqori o'sish sur'atlari Sirdaryo (120,2 %), Jizzax (120,0 %) viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasida (118,3 %) qayd etildi.

Uncha yuqori bo'lmagan o'sish sur'atlari Qashqadaryo (108,9 %) Toshkent (109,1 %) va Samarqand (109,9 %) viloyatlarida kuzatildi.

Hududlar bo'yicha xizmatlarning umumiy hajmida eng yuqori ulushlarni Toshkent shahri (32,7 %), Toshkent (7,2 %), Samarqand (6,5 %), Farg'ona (6,0 %) va Andijon (5,2 %) viloyatlari egallaydi.


2019-yil yanvar-aprel oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida hududlarning ulushi, %



Hududlar o'rtasida eng kichik ulushlar Sirdaryo (1,3 %), Jizzax (2,1 %), Navoiy (2,5 %), Xorazm (2,9 %) viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasiga (3,1 %) to'g'ri keladi.

2019-yil yanvar-aprel oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 1624,9 ming so'mga teng bo'ldi. O'sish sur'ati o'tgan yilga nisbatan 110,2 % ni tashkil etdi.

2019-yil yanvar-aprel oylarida hududlar bo'yicha aholi jon boshiga ko'rsatkichlar



O'tgan yilning shu davriga nisbatan aholi jon boshiga xizmatlar hajmi 287,6 ming so'mga oshdi.

Ushbu ko'rsatkich hududlar o'rtasida Toshkent shahrida 7032,7 ming so'mdan Qashqadaryo viloyatida 751,2 ming so'mgacha oraliqni tashkil etadi.

Bundan tashqari, aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmining sezilarli o'sishi Sirdaryo (18,2 %), Jizzax (17,5 %), Xorazm (11,9 %), Namangan (10,7 %), Buxoro (10,6 %) viloyatlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi (16,5 %) va Toshkent shahrida (13,0 %) kuzatildi.

Nisbatan yuqori bo'lmagan o'sish sur'atlari Qashqadaryo (106,7 %), Samarqand va Toshkent (107,6 %) viloyatlarida kuzatildi.

Xizmatlar sohasini rivojlantirish ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirish uchun eng muhim shartlardan biri hisoblanadi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan bozor islohotlarining ijobiy natijalari xizmatlar sohasini yanada rivojlantirish, ijtimoiy rivojlanishning eng muhim ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarini hal etishda uning rolini oshirish bilan uzviy bog'liqdir.

Xizmatlar sohasi statistikasi boshqarmasi

71-230-80-59

71-230-80-60